

TELEFONLAR ORASIDA YO‘QOLAYOTGAN MULOQOT: ZAMONAVIY YOSHLARNING INSONIY MUNOSABATLARI

Ashuruva Nigora Xaitovna

Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari doktori

Isomitdinova Bahora Qobil qizi

Toshkent farmatsevtika institute

Sanoat farmatsiyasi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Tel.: (91)553-56-06

G‘aybullayev Sanjar Shokir o‘g‘li

Toshkent farmatsevtika instituti

Farmatsiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Tel.: (93) 779-25-25

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22644758>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma‘qullandi: 6-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 7-sentabr 2026-yil

Kalit so‘zlar:

yoshlar, telefon, internet, muloqot, insoniy munosabatlar, ijtimoiy tarmoqlar, texnologiya, do‘stlik.

Bugungi kunda telefon va internet hayotimizning ajralmas qismiga aylanib qoldi. Ayniqsa, yoshlar deyarli har kuni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi, do‘stlari va yaqinlari bilan telefon orqali muloqot qiladi. Texnologiyalar bizga ko‘plab qulayliklar yaratgan bo‘lsa-da, ba‘zan odamlarning bir-biri bilan yuzma-yuz gaplashishi va bir-birini tinglashi kamayib borayotganini ham ko‘rish mumkin. Ushbu tezisda telefon va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning insoniy munosabatlariga ta‘siri, real muloqotning ahamiyati hamda texnologiyadan to‘g‘ri foydalanish haqida fikr yuritiladi. Bugungi hayotimizni telefonsiz tasavvur qilish qiyin. Telefon orqali o‘qiymiz, ishlaymiz, yaqinlarimiz bilan gaplashamiz, yangiliklardan xabardor bo‘lamiz va bo‘sh vaqtimizni ham ko‘pincha telefon bilan o‘tkazamiz. Ayniqsa, yoshlar hayotida telefon va ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni juda katta. Lekin bir narsaga e‘tibor berish kerak: texnologiyalar odamlarni bir-biriga yaqinlashtirayotgandek ko‘rinsa ham, ba‘zan ularning orasidagi haqiqiy muloqotni kamaytirib qo‘ymoqda. Masalan, bir guruh do‘stlar bir joyda o‘tirib, bir-biri bilan suhbatlashish o‘rniga telefoniga qarab o‘tirishi bugungi kunda odatiy holga aylanib bormoqda. Yonimizdagi inson bilan gaplashishdan ko‘ra, boshqa odamning internetdagi hayotini kuzatishga ko‘proq vaqt ajratayotgan holatlar ham uchraydi. Muloqot inson hayotida juda katta ahamiyatga ega. Inson o‘z fikrini, his-tuyg‘ularini va kechinmalarini boshqa insonlar bilan suhbat orqali bo‘lishadi. Ayniqsa, yaqin inson bilan yuzma-yuz suhbatlashishning o‘rni boshqacha. Telefon orqali yozilgan “yaxshimisan?” degan xabar bilan yoningda o‘tirib, holingni chin dildan so‘ragan insonning farqi bor. Chunki haqiqiy muloqotda faqat so‘z emas, balki insonning ovozi, yuz ifodasi va munosabati ham muhim. Bugungi yoshlarning ko‘pchiligi ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi. Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalar orqali yangi insonlar bilan tanishish, fikr almashish va yangiliklardan xabardor bo‘lish mumkin. Buning yaxshi tomonlari juda ko‘p. Muammo texnologiyaning o‘zida emas, undan qanday foydalanishimizda. Agar inson kunining katta qismini telefonda o‘tkazsa, real hayotdagi munosabatlarga vaqt kamayishi mumkin. Ba‘zida ota-ona farzandi bilan gaplashmoqchi bo‘ladi, lekin farzand telefoniga berilib ketgan bo‘ladi. Yoki

do'stlar birga vaqt o'tkazish uchun uchrashadi, ammo suhbatning o'rnini telefon egallab oladi. Eng achinarlisi, ba'zan inson ijtimoiy tarmoqlarda yuzlab "do'st"larga ega bo'lsa ham, o'z muammosini aytadigan yoki uni chin dildan tinglaydigan bir insonni topa olmaydi. Shu sababli real muloqotning qadriga yetish kerak. Insonni tinglash, uning gapini bo'lmaslik, holidan xabar olish, kerak bo'lsa oddiygina yonida bo'lish ham katta e'tibor hisoblanadi. Yoshlar uchun bu masala ayniqsa muhim. Chunki insonning xarakteri va dunyoqarashi shakllanadigan davrda uning atrofidagi muhit va munosabatlar katta ta'sir ko'rsatadi. Agar yoshlar faqat virtual hayot bilan cheklanib qolmasdan, oilasi, do'stlari, ustozlari va jamiyat bilan faol muloqot qilsa, ularda mehr-oqibat, hurmat, sabr va tushunish kabi fazilatlar yanada rivojlanadi. Buning uchun telefondan butunlay voz kechish shart emas. Aksincha, undan to'g'ri foydalanishni o'rganish kerak. Masalan, oila davrasida telefondan foydalanishni kamaytirish, do'stlar bilan uchrashganda suhbatga ko'proq e'tibor berish, kun davomida hech bo'lmaganda ma'lum vaqtni telefonsiz o'tkazish foydali bo'lishi mumkin. Texnologiya inson uchun xizmat qilishi kerak, inson esa texnologiyaning quliga aylanib qolmasligi kerak. Xulosa qilib aytganda, telefon va internet zamonaviy hayotimizni ancha osonlashtirdi. Ular orqali uzoqdagi insonlar bilan tez bog'lanishimiz, bilim olishimiz va kerakli ma'lumotlarni topishimiz mumkin. Ammo texnologiyalardan foydalanish jarayonida eng muhim narsani - insoniy muloqotni unutmasligimiz kerak. Menimcha, ba'zan telefonni chetga qo'yib, yonimizdagi inson bilan oddiygina suhbatlashish ham katta qadriyat. Chunki insonni faqat yozishmalar emas, haqiqiy suhbat, e'tibor va mehr ham yaqinlashtiradi. Bugungi yoshlar texnologiyadan foydalanishni ham, undan biroz uzoqlashib, real hayotdagi munosabatlarni qadrlashni ham bilishi kerak. Chunki eng qimmatli "online" aloqa emas, balki hayotimizda yonimizda bo'ladigan va bizni chin dildan tushunadigan insonlardir.